

YOSQLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Xolboev Askarali Mirxoldorovich

O'zbekiston davlat jaxon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini o'qituvchisi

Mazkur taqolada yosqlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash isqlari samaradorligini oshirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish pedagogik zaruriyat ekanligi yuzasidan fikr yuritilgan. Shuningdek taqolada, tarixiylik tamoyiliga ko'ra ajdodlar tomonidan to'plangan tarixiy va madaniy tajriba yosqlarning ma'naviy, individual va umumiy rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligiga alohida urg'u berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lif muassasasi, talaba, yosqlar, ta'lif-tarbiya, ma'naviyat, madaniyat, vatanparvarlik, milliy g'urur, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, tarixiylik tamoyili, millat, tarixiy va madaniy meros, xalq og'zaki ijodi.

ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРА

Холбоев Аскарали Мирхолдорович

Преподаватель кафедры «Педагогики и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков

В данной статье рассматривается тот факт, что использование фольклора является педагогической необходимостью для повышения эффективности воспитания молодежи в духе патриотизма. Также в статье согласно принципу историчности историко-культурный опыт, накопленный предками, является необходимым условием духовного, индивидуального и общего развития молодежи.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, студент, молодежь, образование, духовность, культура, патриотизм, национальная гордость, гражданское чувство, толерантность, принцип историчности, нация, историко-культурное наследие, фольклор.

EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM BASED ON FOLKLORE

Kholboev Askarali Mirkholderovich

Lecturer at the Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages

This article discusses the fact that the use of folklore is a pedagogical necessity to increase the effectiveness of educating young people in the spirit of patriotism. Also in the article, according to the principle of historicity, the historical and cultural experience accumulated by ancestors is a necessary condition for the spiritual, individual and general development of youth

Key words: Higher educational institution, student, youth, education, spirituality, culture, patriotism, national pride, civic sense, tolerance, the principle of historicity, nation, historical and cultural heritage, folklore

Kirish: Har qanday millat, har qanday xalq bor ekan, uning o'z manfaatlari, o'z maqsad va orzu-idealariga ega bo'lishi tabiiy. Ana shu orzu-umidlar va maqsadlarni ifoda etadigan, ularni

ruyobga chiqarish uchun xalqni safarbar qiladigan g’oyalar esa muayyan mafkuraga asos bo’ladi. Vatanparvarlik tuyg’usi O’zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, oljanob maqsad-muddaolarini o’zida mujassam etadi.[16]

Sh.M.Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz” nomli kitobida biz yaratayotgan Yangi O’zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g’oyasi bo’ladi-degan aqidaga tayanib, vatanparvarlik tuyg’usini go’daklik davridan bosqlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. [8]

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 noyabr 2018 yildagi «O’zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida» PQ-4038-sonli Qarorida “...milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosqlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo’llab-quvvatlash” masalalariga alohida urg’u berib o’tilgan bo’lib, mazkur Kontseptsiyada:

-mamlakatning tarixiy rivojlanish jarayonida madaniyat va san’at xalqimizning ma’naviy boyligini saqlab, to’plab avlodlarga etkazib kelgani, xalqimizda birdamlik, vatanparvarlik va milliy g’urur hissini tarbiyalaganini e’tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg’u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta’minalash, unda fuqarolarning hamjihat bo’lishiga erishish, ma’naviyatli, mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni shakllantirish;

-ajdodlar tomonidan to’plangan tarixiy va madaniy tajriba jamiyat a’zolarining individual va umumiyl rivojlanishi uchun zaruriy shart ekanligini jamoatchilik ongiga singdirish, bu borada jamoatchilik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash;

-insoniyat taraqqiyoti va jahon madaniyatiga munosib hissa qo’shgan yurtimizning madaniy merosini YUNESKOning tegisqli ro’yxatlariga kiritish choralarini kuchaytirish;

-xalqimiz, ayniqsa, yosqlar qalbida milliy istiqlol g’oyalariiga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat, buzg’unchi g’oyalarga qarshi immunitetni yanada kuchaytirishda teatr va kino san’atining rolini oshirish asosiy vazifalar jumlasiga kiritilgan.

-tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo’llash;

-milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosqlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo’llab-quvvatlash;

-xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san’atini saqlab қolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruqlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish asosiy vazifalar sifatida qayd etib o’tilgan. [3]

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida” Farmonining 70-maqsadi: Yosqlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga qaratilgan bo’lib, unda “Yosqlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg’usi, bag’rikenglik, қонунлага, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarasqlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash;

71-maqsadi: o’zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash vazifalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Haqiqatdan ham «Milliy g’oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oljanob isqlarimizda madadkor bo’lishi zarur [11] Buning uchun, yosqlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish jarayonini davr talablariga hamohang tashkil etish, ularni o’z xalqi tarixini chuqr biladigan, o’tmish va bugungi davr yangiliklarini tez idrok etib, xalq og’zaki ijodi namunalaridan o’z faoliyatida qo’llay oladigan qilib tarbiyalash oliv

maktab va pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalaridan bo'lib hisoblanadi.

Aytish joizki, asrlar mobaynida xalqimiz asrab kelayotgan umuminsoniy milliy va ma'naviy qadriyatlarni ruyobga chiqarish va shakllantirishda yangi davr bosqlandi. Bu davr, bugungi texnogen tsivilizatsiya va globallashuv talablaridan kelib chiqqan holda, yosqlar ilmiy dunyoqarashini takomillashtirishga xizmat qiladigan manbalar bilan boyitilishi, «Yosqlar — Yangi O'zbekiston bonyodkorlari» shiori ostida «Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans» g'oyasining ro'yogha chiqarilishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak. [5]

Bilamizki, hamma narsaning: moddiy va ma'naviy boyliklarning ham, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'atning asoschisi ham xalqning o'zidir. Xalqimizning ana shu bebaho – milliy qadriyatlarmizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lism, yosh avlodga insonparvarlik vatanparvarlik singari fazilatlarni qaror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinali foydalanish yosh avlodni ma'naviy tomondan mustaqil qilib etishtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Yosqlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish mazmunini taqlil qilish jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi va tarix ijodkori bo'lgan xalq ommasining amaliy faoliyatiga uning bonyodkorligiga aqliy va jismoniy kamoloti, siyosiy ongligi va ma'naviy-axloqiy etuklik darajasiga bog'liq yosqlar umummilliy madaniyatini yuksaltirish lozimligini tajribalar yaq'qol ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham “Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy bosqlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalar vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim”ligi қayd etib o'tilgan. [7]

Fikrimizcha, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan bosqlab yosh avlodga Vatan — kishining tug'ilib o'sgan o'liasi, shaxri, ona yurti, diyori, xar bir fuqaro uchun mamlakat, turar joy, boshpana, maskan, uy [14] ekanligini singdirish lozim.

Hayotiy va ilmiy tajribalarimizga asoslanib ayta olamizki, inson ulg'aygan sari uning Vatan xaqidagi tushunchalari ham kengaya boradi. Yurtimizda tug'ilib-o'sgan xar bir inson “Vatanim” deganida o'z uyini, qisqolog'ini yoki shaxrini emas, balki O'zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg'usining, vatanparvarlikning xalqimiz қalbidagi ifodasidir.

Shuningdek yosh avlodga Vatan ozodligi uchun jonini fido qilgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik singari xalqimizning mard va jasur farzandlari biz uchun, o'sib kelayotgan yosh avlod uchun o'rnak-namuna timsoli ekanligini singdirish ular қalbiga o'tmish avlodlariga nisbatan mehr uyg'otish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Shu o'rinda alohida e'tirof etib o'tish lozimki, bugungi globallashuv va keskin raqobat davrida, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintakamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi taxdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. [7]

Hech kimga sir emaski, Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-yosqlar orasida ham bilib bilmay diniy aqidaparastlik ko'rinishidagi g'oyalar bilan sug'orilayotgan, xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'i: “Facebook”, “Odnoklassniki.ru”, “Telegram”, “Mail.ru” «Twitter», «Facebook», «Odnoklassniki», «YouTube» kabi ijtimoiy tarmoqlardagi yosqlar kamoloti uchun yot bo'lgan turli illatlardan, “onlayn” tanishuvlardagi muloqot, zararli ta'sirlar girdobiga tushib қolishiga sabab bo'lmoqda.

Haqiqatdan ham yosqlar ma'naviy tarbiyasida yadro maydonlari emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurasqlar, zamonaviy xalqaro axborot maydonidagi mafkuraviy,

g’oyaviy va informatsion tahdid kuchayib borayotgan bir paytda milliy istiqlol g’oyasini yosqlar ongiga singdirish, xalq og’zaki ijodi asosida yosqlarni g’oyaviy xurujlardan asrash, ularda hayotga ongli munosabatni shakllantirish zarur.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosqlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanish mohiyatiga ko’ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o’tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog’laydigan asriy orzu-istiklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy - ijtimoiy g’oyalar tizimidir.

Demak yosqlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ta’lim tizimida o’rganilishi ham ma’naviy barkamol yosqlarni tarbiyalashning asosiy yo’li bo’lib қolmoqda.

Alohiba ta’kidlash zarur-ki, vatanparvarlik tuyg’usining tarixiy shakllanish jarayoniga murojaat etmay turib, uning bugungi kundagi holatini to’liq ochib berish mumkin emas.

Qadim davrlardan bosqlab shakllangan va xalq og’zaki ijodi namunalari bo’lgan ertak, rivoyat, maқol va dostonlarda vatanparvarlik tuyg’usi asoslarini ifodalovchi ezgu hislar o’z ifodasini topadi. Jumladan, islomgacha va islom madaniyati amal qilgan davrda shakllangan buniyodkor g’oyalar, «Sharq renessansi» deb nom olgan Uyg’onish davri g’oyalari va XIX asr oxiri XX asrning bosqlarida ma’rifatparvarlik harakati zaminida shakllangan milliy mustaqillik g’oyasi hamda mustabid sovet hokimiyati yillarda o’zbek xalqining ilg’or vakillari ongida yashirin tarzda vujudga kelgan milliy ozodlik g’oyalari bugungi jamiyatimiz milliy mafkurasining poydevori bo’lib xizmat qildi.[14]

Pedagog olima O.Musurmanovaning fikricha talaba yosqlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishda fol’klor ya’ni xalq og’zaki ijodidagi an’anavylikdan foydalanish asosiy kategoriylar biri hisoblanadi. Mazkur an’anavylik: ming yillardan buyon maқoldan topishmoqqacha, qo’shiqdan dostonlargacha bo’lgan asarlar og’zaki an’ana; ikkinchidan, fol’klor asarlarning ijrosi ijro qilinish vaziyati (to’y va boshqa vaziyatlar) va ijro usuli jihatidan an’anaga ega; Uchinchidan, an’anavylik og’zaki asarlarning matnida namoyon bo’ladi.[15]

Olima tomonidan yosqlarni xalq og’zaki ijodi bo’lgan asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, maқol, matal, qo’shiq, lof, xalq dramasi, askiyalarni o’zida mujassam etgan qadriyatlar asosida tarbiyalash ularda millatiga, xalqiga, vataniga bo’lgan mehr tuyg’usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek A.Musurmanova izlanisqlarida qadriyatlarni falsafiy-pedagogik jihatdan o’rganib, ularni bir necha turlarga bo’ladi: moddiy va ma’naviy qadriyatlarni har tomonlama taqlil etadi va ularning yosqlarda vatan tuyg’usini shakllantirishda muhim ma’naviy manba sifatida qaraydi. Fikrimizcha, yosqlarda inson qalbi va ongiga ijobiy ta’sir etadigan tushuncha va tuyg’ular, xalq og’zaki ijodining unitilmas merosi, eng qadimiy ma’rifiy boyliklarda ifoda etilgan va qadrlangan xislatlar: jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushmuomalalik kabi fazilatlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarga asoslangan tarixny xotirani uyg’otish, o’tmishdan saboq chiqarish va o’zlikni anglash muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.[15]

Talaba-yosqlarda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishda xalq og’zaki ijodidan foydalanish imkoniyatlarini ilmiy o’rganishga, uni taqlil qilishga va ularni ta’lim-tarbiya sohasida qo’llashga keng imkoniyatlar yaratildi. O’zbek xalqi turmush tarzi, dunyoqarashi, urf-odati, an’analari va milliy xususiyatlarini yanada mustahkamlash va uni rivojlanirishda, ma’naviy jihatdan barkomol avlodni voyaga etkazish va ularda ilg’or milliy urf-odatlarimizni shakllantirish ehtiyoji mavjud ekanligi yaqқol ko’zga tasqlanmoqda.

Vatanparvar yosqlarni tarbiyalashda xalq og’zaki ijodidan foydalanish bilan bir қаторда, xalqimizning tarixiy merosini oqilona o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tarixiy merosni asrab-avaylash, o’rganish va kelajak avlodlarga қoldirish davlatimiz siyosatining

ustuvor yo'nalisqlaridan biriga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy kamol topgan yosqlargina Yangilanayotgan O'zbekiston rivojiga o'z ulusqlarini qo'shisqlari, yangilanayotgan jamiyatni barpo etishda kamarbasta bo'lislari shubhasiz. Zero, xalqimizning qadim zamonlardan buyon amal qilib kelayotgan xalq og'zaki ijodi namunalari milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda muhim omil sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagagi "Yosqlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yosqlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi PF-5106-son Farmoni. www//lex.uz.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagagi "Yosqlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqishga ko'tarish shora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori. Konun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz)

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagagi "Ma'naviy-ma'rifiy isqlar samaradorligini oshirish bo'yisha qo'shimsha shora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4307-sonli Qarori (Konun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2019 y., 07/19/4307/3079-son)

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 31.12.2019 y. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish shora-tadbirlari to'g'risida"gi №1059-sonli Qarori. Konun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. (www.lex.uz)

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni. www//lex.uz.

6.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 29 июн 2023 йилдаги "Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш chopatadbirlari тўғрисида"ги 267-сонли Қарори. <https://lex.uz/docs/6518238>

7.O'zbekiston respublikasi mакtabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi 45-son 7-to'plam iyun 2023

8.Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқисчга қўтарамиз / Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - 592 б.

9.Otamurodov S. "Globalashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik"(siyosiy-falsafiy tahlil). T.: "O'zbekiston" 2013 – 3

10.Ибрагимов Х. И., Йўлдошев У.А., Бобомирзаев Х. Педагогик психология. –Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2007. – 410 б.

11.Мамашокиров С, А.Ўтамуродов, Э.Р.Қодирова, М.Ортиков, Ш.Тоғаев, О.Мухаммадиева. Миллий тараққиётнинг ғоявий-мафқуравий асослари. Ўқув кўлланма Т.: 2010. -42 б

12.Шермуҳаммадов Б. Ш. Ёшлар орасида миллий ғоя тарғиботи самарадорлигини ошириш («Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати фаолияти мисолида).. Докторлик дисс автор. Тошкент шахри – 2016 йил

13.Quronov M. Ezgu g'oyalar ro'yobi. – Т.: «Ma'naviyat», 2011. -160 b.

14.O'zbek tilining izoqli lug'ati: 80000dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J-III-N-Tartibli/-T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 563 b

15.Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yosqlar tarbiyasi: umumta'lif maktablari uchun. – Т.: O'qituvchi, 1996.- 192 b.

16.<https://www.elib.buxdu.uz/i>